UDK: 378:658:65.012. **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a110**

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMLARINI ISLOH QILISH VA UNGA YaNGICHA PRINTSIPLARINI JORIY QILISH ZARURATI

НЕОБХОДИМОСТЬ РЕФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ВУЗОВ И ВНЕДРЕНИЯ В НИХ НОВЫХ ПРИНЦИПОВ

THE NEED TO REFORM ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND IMPLEMENT NEW PRINCIPLES TO THEM

[1]Boymirzayeva Dilbar Dmitrievna
[1]Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotasiya

Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati va boshqarishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirish vazifalari to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость реформирования организационно-управленческих механизмов в высших учебных заведениях сегодня и внедрения в них новых принципов, а также внедрения новых подходов к управлению, подготовке кадров и системе непрерывного образования, государственному регулированию динамики развития. и структурные изменения государственных и негосударственных образовательных учреждений.изложены мнения о задачах совершенствования.

Abstract

In this article, the training of qualified and competitive personnel in the higher education system is an urgent socio-economic issue, and the introduction of new approaches to the organization and management of educational activities in the higher education system, personnel training and continuous education system, the dynamics of development and structural changes of state and non-state educational institutions are expressed.

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, rahbar-xodimlar, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, boshqaruv vazifalari, barkamol inson, boshqaruv madaniyati, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.*

Ключевые слова: *высшее образование, руководители-работники, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, задачи управления, совершенный человек, культура управления, гражданское общество, научно-методология.*

Key words: *higher education, leaders-employees, modern worldview, scientific-theoretical views, continuous education, management tasks, perfect person, educational standards, civil society, scientific-methodology.*

KIRISH

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ta'limning ko'pchilik uchun ochiqliligi, teng imkoniyatli bo'lishi, uning samaradorligiga ko'maklashish uchun samarali boshqaruv tamoyillarni ishlab chiqish va isloh qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada oliy ta'limning institutsional erkin faoliyat yuritishi asosida o'zining barcha ishlarini bozor qonuniyatlari asosida yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan mukammal tizimini yaratishga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar, qonunchilik va tashkiliy masalarada islohotlar olib borilmoqda.

Mazkur islohotlar asosida oliy ta'lim boshqaruvni liberallashtirish, markazlashtirilgan boshqaruvdan voz kechish, oliygohlarga akademik mustaqillik berish va moliyaviy erkinlikni yaratish orqali tizimda raqobatni vujudga keltirish lozimligi kelib chiqmqoda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish, umuman olganda standart o'quv dasturlaridan voz kechgan holda kreativlikni oshirish kerak. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g' risida»gi[1] qarori mazkur jarayongan doir ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa tashkiliy masalalarni ijrosini yangi bosqichga olib chiqishga qaratailgan. Chunki zamonaviy rivojlangan jamiyat hayotini bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilab olingan. Negaki, mamlakatning ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog' liqdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berish sifati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati qaytadan uyg‘otilib, yuksak marralarga yo‘naltirilmoqda. Natijada, yoshlarimizning o‘z orzu va maqsadlariga erishishi, sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirishi, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lishi esa har tomonlama ta’minlanmoqda.

Boshqaruv so‘zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi obyekt yoki tizimga faol ta’sir ko‘rsatishni anglatadi. Bu, o‘z navbatida, ma’lum bir rejalashtirilgan faoliyatni ifodalaydi. Har qanday faoliyat boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt tizimlaridan iborat bo‘lib, mazkur tizimlar o‘rtasidagi aloqa insonlarning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topadi va mavjud o‘zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan ixtiyoriy faoliyat albatta boshqaruvni talab etadi, shaxsning individual faoliyatida inson o‘zini o‘zi boshqaradi va ko‘zlangan natijalarga erishadi, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o‘zaro ta’sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta’siri zarur bo‘lib, bu o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqaruvni, ya’ni ma’lum bir maqsadga erishish yo‘nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fani yuzaga kelishi tufayli jadal sur’atlar bilan rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Boshqaruv bilimlari ko‘p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, un yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu o‘rinda boshqaruvning ikki asosiy funktsiyasi farqlanadi: maqsadga yo‘naltiruvchi va tashkiliy funktsiyalar».[3] Shunday ekan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan boshqaruv ishi tuzilmani takomillashtirilishi, noto‘g‘ri yo‘ldagi boshqaruv esa tanazulga boshlashi kelib chiqadi. Shu bois har bir tuzilmaning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda to‘g‘ri boshqaruv modelini tanlash va funktsiyalarini tartibli olib borish samaradarlikni belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nemis olimlari V.Zigert va L.Lang boshqaruvga quyidagicha ta’rif berganlar: – «boshqaruv – bu odamlarni boshqarish va mablag‘ lardan foydalanishning shunday turiki, u qo‘yilgan maqsadga insoniy, iqtisodiy va ratsional ravishda erishishni ta’minlaydi. Amerikalik olim P.Drukerning nuqtai nazari bo‘yicha, – boshqaruv, bu faoliyatning mujassamlashmagan, olomonni samarali, maqsadga yo‘naltirilgan va ishlab chiqaruvchi guruhga aylantiruvchi turidir».[5] Umuman olganda jamiyatimizning har bir sohasida rahbarlik madaniyatini va etikasini rivojlantirishimiz, rahbarlikka tayinlashda ma’lum bilim va ko‘nikmalarning rivojolanganligini inobatga olish tizimini ishlab chiqsh lozim. Chunki rahbarllik mas’uliyat, javobgarlik va sinov bo‘lgani uchun rahbar shaxsiyatida bilim, qobiliyat va tashabbuskorlik bo‘lishi lozim. Shunday ekan, «boshqaruv madaniyati deb, boshqaruv sohasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmui va ularni amalga oshirish jarayonining namoyon bo‘lishidir. Boshqaruv madaniyati boshqarilayotgan har qanday ob’ektga nisbatan ishlatiladi. Shuning uchun boshqaruv madaniyati jamiyatni boshqarishda ham, tashkilot va muassasalarni boshqarishda ham kuzatishimiz mumkin».[6] Shu bilan birga rahbarlikning gumanistik vazifasini ham unitib qo‘ymaslik kerak. Bu ham bo‘lsa boshqariluvchilarga baxt-saodatnini ta’minlashga harakat qilish. Bu haqida mashhur mutafakkir Abu Nasr Forbiy quydagicha fikr bildiradi: «O‘zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko‘tarish ham har kimning qo‘lidan kelavermaydi. Kimda birovni baxt-saodatga erishtirish, zarur bo‘lgan ish-harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo‘lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo‘lsa, bunday odam sira ham rahbar bo‘la olmaydi».[7] Shuningdek, «Qobusnoma» asari bilan mashhur bo‘lgan Kaykovus ham boshqaruv va rahbarlik masalalariga alohida to‘htalib o‘tadi. Jumladan, «Ey farzand, agar podshoh bo‘lsang, porso bo‘lg‘il va ko‘zingni, qo‘lingni xaloyiqning ayol va aftolidin yiroq tutg‘il. Har ish qilsang, aql farmoni bila qilg‘il va aqldin bemaslahat ish qilmag‘il, nedinkim, podshohning vazirlari aqldir. Har bir ishning o‘lchog‘in bilg‘il va barcha ishni o‘ylab qilg‘il. Barcha ishga, so‘zga aql yuzi bilan qarag‘il, toki botilni ko‘ra olmag‘aysan. Hech odamdin zinhor bir narsa tilamag‘il va bandalarga rahmdil bo‘lg‘il, ammo berahmlarga rahm qilmag‘il. Hamisha lutf va karamni odat qilg‘il, lekin siyosatlik bo‘lg‘il.

Muassasaga ko‘rsatadigan ta’siriga ko‘ra ijobiy va salbiy omillarni ajratish mumkin. Ijobiy omillar o‘quv muassasining boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qilsa, salbiy omillar samaradorlikning ijobiy o‘zgarishiga to‘sqinlik qiladi. Shunday omillar borki, ular istalgan ta’lim

muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta’sir qiladi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- quyilgan maqsadlarning sifati;
- maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya’ni, ularning qo‘yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi;
- joriy holatni to‘g‘ri baholash;
- Shuningdek, ta’lim muassasalari boshqaruv tizimida boshqaruv jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, uning samaradorligi tushunchalarini aniq ajratilishi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilishi, ta’lim muassasalarida ierarxiyalar tahlili usuli asosidagi kafedralar reytingi modeli ishlab chiqilishi, uning boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash usullariga asoslanishi ta’lim muassasasi boshqaruv samaradorligini baholashda yuqori natijalarga erishishda ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi.
- Bugungi kunda ta’lim muassasasi ichki muhitida boshqaruvning turli bo‘g‘inlarida samaradorligini baholashda sodda, qulay, egiluvchan uslublar etarli bo‘lmaganligi uchun ularga ehtiyoj mavjud. Turli xarakterdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan hamda eng maqbul qarorga kelishni ta’minlaydigan ko‘p mezonli kompleks tahlil qilish va baholash usullarini ta’lim muassasalari boshqaruvi jarayonida samarali qo‘llash o‘zining imkoniyatlari kengligi va istiqbolliligi bilan ajralib turadi. Ta’lim muassasasi boshqaruv jarayoni samaradorligini kompleks baholash ko‘pgina bozor subyektlarida qiziqish uyg‘otadi va dolzarbligini yuqorida keltirilgan mulohazalar asoslaydi. Oliy ta’lim muassasalaridagi boshqaruv jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini baholash usullarini aniqlash, erishilgan amaliy faoliyat natijalari asosida boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashni tadqiq qilish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini turli ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin. Bir tomondan, ta’lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash faqat boshqaruvga doir ko‘rsatkichlar bilan amalga oshirilishi, ikkinchi tomondan, boshqaruv samaradorligi ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonlarning o‘zgarish dinamikasi, resurslarining natijaviylik, o‘tkazilayotgan islohotlarning har bir shaxs uchun ta’sir darajasi bilan bog‘ liq.

Bugungi kunda boshqaruv madaniyati va uning oliy ta’lim muassasasi hayotidagi roli hamda ahamiyatiga oid ko‘plab ilmiy ishlar chop etilgan. Shu jumladan, ta’lim muassasasi boshqaruvi sohasining bir necha mutaxassislari va mazkur sohada ilmiy faoliyat olib borgan ayrim olimlarning ilmiy izlanishlari ta’lim muassasasidagi boshqaruv madaniyatining turli jihatlari tadqiqiga bag‘ ishlanganligi bilan e’tiborga molikdir. Ta’limning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rnini hisobga olgan holda shuni aytish kerakki, ta’lim muassasasining o‘ziga xos boshqaruv madaniyatini tadqiq qilish, boshqaruvni tashkil etish madaniyatining shakllanishi, kadrlar zaxirasi potentsialidan amaliy foydalanish muammolari bugungi kunda dolzarb sanaladi.

Xuddi shunday yondashuv OTMdagi xodimlar tomonidan ham e’tirof etildi. Tashkilotning partitsipativ boshqaruv turiga xos bo‘lgan har tomonlama munozara yo‘nalishi bugungi kun talablariga mos kelishi alohida e’tirof etildi. Ayni paytda, muammolar echimi (ochiq o‘zaro hamkorlik yordamida), rahbarlik tashkiliy asoslarining (aloqa va hamkorlikni rag‘batlantirish) mazkur turga oid yo‘nalishlarda ifodalanishi tashkilot missiyasiga to‘la mos kelishi alohida ta’kidlandi. Shu sababli ham tashkilot boshqaruvining istiqbolli deb belgilangan turida partitsipativ madaniyatga nisbatan ko‘proq e’tibor berilgan. Istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilangan faoliyatning yana biri doimiy muammolarni bartaraf etishda yangi ijodiy yondashuvlarni izlash sanaladi. Aynan mana shu omil yordamida rivojlantirilishi kerak bo‘lgan boshqaruv turining yana biri tadbirkorlikkaasoslangan ekanligi izohlab berildi.

Jahonda oliy ta’lim sifati va kadrlar raqobat bardoshligini oshirish, intellektual faolligini shakllantirish masalalari bilan YuNESKO shug‘ullanadi. U oliy ta’lim mazmunini xalqaro darajaga ko‘tarish, modulli ta’limni tashkil etish, o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, «Oliy ta’limning Yevropa maydoni» kabi integratsion jarayonlar va harakatlarning paydo bo‘lishi hozirgi vaqtda oliy ta’lim bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko‘rsatmoqda.[8] Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 1994-yilda YuNESKO va Umumjahon banki oliy ta’limni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha olib borgan ishlarini jamlab, “Oliy ta’lim: tajriba saboqlari” ma’ruzasini chop etgan va unda daromad darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlarda ta’limga investitstsiyani oshirish, ta’lim

boshqaruviga yangicha tamoyillarni olib kirish katta samara berishini ilgari surgan holda, eng asosiysi, oliy ta'limga mablag' larni investitsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar zarurligi ham e'tirof qilindi. 2000-yilda YuNESKO va Umumjahon bankining birgalikdagi tashabbuslari natijasi o'laroq, matbuotda «Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim: xavf-xatar va istiqbollar» bildirishi e'lon qilindi va rivojlanishning har qanday umumiy strategiyasida oliy ta'lim muhim ahamiyati ta'kidlandi. Unda mamlakatlarni har tomonlama rivojlantirish, kambag' allikni qisqartirish uchun oliy ta'limning ahamiyatini butun tafsilotlari bilan ko'rib chiqilgan va tadqiqot institutlari tomonidan taklif qilinayotgan ta'lim strategiyalarini tajribadan o'tkazish zarurati alohida ta'kidlangan.

NATIJALAR

Ta'lim menejmentida ilmiy yondashuvlarga asoslangan qarashlar XX asrning 30-yillarida yanada rivojlanib, asosan AQSHda keng tarqalgani va bu davrda ta'limni boshqarishning ma'muriy usullari, ushbu davr oxiriga kelib, yangi yo'nalish va tub burilish yasagan insoniy munosabatlar tamoyillariga asoslangan boshqaruv nazariyasi rivojlana boshlagan. Mazkur nazariya asoschilaridan biri E.Meyo va uning g'oyadoshlari J.Xomans, M.Follet, A.Maslou, F.Rotlisbergerlarning "Xotorn tajribasi" natijasiga ko'ra, mehnat unumdorligiga jismoniy omillardan ko'ra ijtimoiy-psixologik omillar ko'proq ta'sir qilishi isbotlangan. Tahlillarga ko'ra, ta'limni boshqarish nazariyasi xorijiy davlatlar, xususan, G'arbiy Evropa mamlakatlari, AQSH va Kanada, Avstraliya va Yangi Zellandiyada jadallik bilan rivojlanib bordi. Uzoq yillik rivojlanish davrida hamda bir necha bosqichli o'zgarishga uchrashishi natijasida boshqaruvning umumiy nazariyasi sohasidaalohida o'rin egallagan ilmiy yo'nalishgaaylanib ulgurgan.

Liberal model **-** (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada) oliy o'quv yurtlarining keng ko'lamdagi avtonomiyasi bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim vazirliklari va hokimiyat organlarining roli strategik ustunlik va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish parametrlarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Boshqaruv vakolatlarining asosiy qismi vositachi-tashkilotlar qo'lida to'plangan bo'lib, ular ta'lim dasturlarini litsenziyalashtirish va akkreditatsiyalash, ta'lim sifatini baholashni ta'minlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash vazifasini bajarishga javob berishi mumkin.

AQSHda institutsional avtonomiya belgilari yetarli darajada aniq namoyon bo'ladi, chunki bu yerda davlatning yetakchilik rolini pasaytiruvchi va Amerika universitetlarini ko'p kanalli moliyalashtirishni ta'minlovchi bozor muhim ahamiyatga ega bo'lib, u davlat tomonidan qo'llab-quvatlanishi bilan birga turli grantlar, loyihalar va shartnomalardan, pulli ta'lim berishdan, xayriya fondlaridan, ilmiy-ta'limiy xizmatlarini sotishdan ham daromad oladi. Vasiylar kengashlari universitet va jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TSentristik model doirasida (Frantsiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) oliy o'quv yurtlari huquqiy nuqtai nazardan o'quv, ilmiy-tadqiqot, ma'muriy va moliyaviy faoliyatda avtonom hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda universitetning davlat bilan munosabatlari qonunchilik aktlari, davlat boshqaruv organlarining buyruqlari va qo'llanma(instruktsiya)lari bilan boshqariladi.

Oliy o'quv yurtlarining struktura va vazifalari, o'quv rejalari va dasturlar, sustaqilligining yangilanganiga qaramay, ma'lum darajada davlat organlarining ta'limni boshqarishga oid qo'llanmalari asosida belgilanadi va ular oliy o'quv yurtlari faoliyatiga doir tezkor masalalarni hal qiladi.

MUHOKAMA

Oliy ta'lim sohasida ortirilgan tajribalar asosida O'zbekiston qonunchiligidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g' risida" 2018-yil 5- iyundagi PQ-3775-son qaroriga O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalarigaasoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g' risida"gi PF-5847-son farmoni chiqdi. Farmonga ko'ra, oliy ta'lim tizimida quyidagilarni amalga oshirish belgilab olingan:

- Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosidaoliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;
- Respublikadagi kamida 10 taoliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;
- Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-moduль tizimiga o‘tkazish;
- Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topaoladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish; va h.k.

XULOSA

Xulosa qilganda, bugungi globallashuv sharoitida ta’limda ham global o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ta’limni globallashuv jarayonlariga moslashtirish, unga innovatsion standartlarni joriy etish uchun innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga boshqaruv tizimini ham isloh qilish, unga yangicha printsiplarni joriy etish zarurati ham ortib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim boshqaruviga yangicha tamoylillar sifatida instituttsional avtonomiyaning tarkibiy qismlari sifatida akademik va moliyaviy avtonomiya shakllanmoqda va samarador jihatlarini o‘zida namoyon qilmoqda. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimini isloh qilishni maqsad qilgan har bir mamlakat o‘zining oliy ta’lim boshqaruviga mazkur tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2018, -B. 6-7.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘ risida» gi Qarori. // Xalq so‘zi. 2017 yil 28 iyuь.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlargaoid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ risida»gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
4. Anyushin S.V. Upravlenie vыsshimi uchebnыmi zavedeniyami (novыe tendentsii). – M.: «Akademiya truda i sotsialьnыxotnosheniy», 2000. –S. 203.
5. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent.: TDPU, 2003. – B. 234.
6. Ahmedova N.K. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.TDPU. –B. 11.